

O'ZBEKISTONDA AHOLINING MOLYAVIY SAVODXONLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

PhD Kambarova Shaxnoza

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ORCID: 0009-0006-2819-9842

kambarovashaxnozaxon6@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz aholisining moliyaviy savodxonlik darajasining ahamiyati, hozirgi kundagi dolzarbligi o'rganilgan. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni o'rganishda qabul qilingan qarorlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, olimlarning bu masaladagi fikr mulohazalari tahlil qilingan. Shu bilan birga moliyaviy savodxonlikni o'rganishni rivojlantirish chora-tadbirlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, strategiya, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy inqiroz, moliyaviy resurslarni boshqarish ko'rsatkichi, maqsadli milliy strategiya, savodxonlik, investitsiya, firibgarlik.

РАЗВИТИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

PhD Камбарова Шахнозахон

Ташкентский государственный институт востоковедения

Аннотация. В статье рассматривается важность и актуальность уровня финансовой грамотности населения нашей страны на сегодняшний день. Проанализированы принятые решения и нормативно-правовые документы в области изучения финансовой грамотности, мнения учёных по данному вопросу. Одновременно намечены меры по развитию финансовой грамотности.

Ключевые слова: финансовая грамотность, стратегия, финансовые планирование, финансовый кризис, целевая национальная стратегия грамотность, показатели управления финансовыми ресурсами, инвестиции, мошенничество, стратегия.

DEVELOPMENT OF FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN

PhD Kambarova Shahnazakhon

Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract. The article discusses the importance and relevance of the level of financial literacy of the population of our country today. The decisions and regulatory documents adopted in the field of studying financial literacy, the opinions of scientists on this issue are analyzed. At the same time, measures for the development of financial literacy are outlined.

Keywords: financial literacy, strategy, financial planning, financial crisis, targeted national literacy strategy, financial management indicators, investments, fraud, strategy.

Kirish.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirishda, aholining farovonligini oshirishda, iqtisodiyotni modernizasiyalashni shakllantirishda axolining moliyaviy savodxonligini oshirish bilan shug'ullanish kerakligini isbotlamoqda. Shuni e'tiborga olish kerakki, xozirgi kunda mamlakatimiz axolisi o'z mablag'laridan noto'g'ri foydalanishlari, o'z xarajatlari va jamg'armalarini rejalashtirish, investisiyalashni ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, favqulodda vaziyatlar uchun zarur bo'lgan mablag'larining jamg'arishdagi etarlicha ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli, moliyaviy jixatdan savodsizligi tufayli noto'g'ri qaror qabul qilish va o'z farovonliklarini oshirishda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalana olmaganliklari buning yorqin dalilidir.

Shu munosabat bilan moliyaviy savodxonlikni o'rganishdan avval savodxonlik tushunchasiga to'xtalib o'tamiz, savodxonlik – bu kishilarning bilimi, aqliy va ma'naviy jixatdan rivojlanishi, malaka, ko'nikmalardan iborat. Savodxonlikning bir qancha turlari bo'lishi mumkin, masalan kompyuter savodxonligi, til savodxonligi, matematika savodxonligi, iqtisodiyot savodxonligi kabi tushunchalari mavjud. Shu bilan birga biz moliyaviy savodxonlik bilimlarini o'rganishga xarakat qilamiz. Demak, moliyaviy savodxonlik moliyaviy jixatdan bilimlarimizni oshirish, kundalik xayotimizda uchraydigan moliyaviy muammolarni to'g'ri xal qilish, o'z mablag'larimizdan oqilona foydalanish, moliyaviy qarorlarimizni to'g'ri qabul qilish kabi masalalarni moliyaviy savodxonlik kursida o'rganishga aloxida ahamiyat berish zarur (Vaxobov, Toshmatov, 2013).

Bu borada mamlakatimiz Prezidentining qator farmon va qarorlari, me'yoriy-xuquqiy xujjatlar, taraqqiyot strategiyalari va yoshlarni moliyaviy jixatdan bilimlarini oshirishda qo'llanilgan bir qator chora-tadbirlar, seminar dars mashg'ulotlari, treninglar va musobaqalar o'tkazib kelinmoqda. Bularning barchasi axolini va yosh avlodni moliyaviy jixatdan bilimlarini, malaka va ko'nikmalarini oshirishda, kelajakda turli xil moliyaviy muammolarga duch kelmasliklariga turtki bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296 son (Farmon, 2018), 2025 yil 17 yanvardagi "2025-yilda axoli bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-12 son (Qaror, 2025), 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari (2022), 2024 yil 7 fevraldagi "Iqtisodiyot soxalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62 son qarori (2024), 2023 yil 9 martdagi "Axoli tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida"gi PQ-88 son qarori (2023) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu mavzuning dolzarbligi va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Aholining moliyaviy savodxonlik bilimlarini o'rganishda, xayotiy farovonlikni oshirishda, moliyaviy qarorlarni qabul qilishdi, kelajak avlodga bu tushunchalarni etkazishda xorij va mamlakatimiz olimlarining fikrlari mavjud. Xususan, xorij olimlaridan Veberning (2010) fikricha "Aholining moliyaviy savodxonligi inson moliyaviy xulq-atvorining ajralmas qismi hisoblanadi va iqtisodiy savodxonlik bilan o'zaro mutanosiblikda bo'ladi" deb tushungan. Druker (1993) esa "Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy savodxonlik bilan bog'liq tushuncha bo'lib, insonning hayotiy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi" deb ta'kidlagan. Kiyosaki (2011) "Insonning moliyaviy savodxonligi pul mablag'larini ishlab topish, jamg'arish, uni ko'paytirish maqsadida samarali investisiya qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq" deb aytgan. Shuningdek, mamlakatimiz olimlaridan Vaxobov (2009) "Moliyaviy savodxonlik – fuqaroning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyasini egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarining turmush farovonligini oshirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarining yig'indisi

sifatida namoyon bo'ladi" deb xisoblagan. Shadmonov (2020) esa "Moliyaviy savodxonlik – fuqaroning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyasini egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarining turmush farovonligini oshirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi," deb aytgan.

Ushbu olimlarning fikr va muloxazalarini umumlashtirgan xolda, aytish mumkinki, "moliyaviy savodxonlik – aholining kundalik hayotdagi oddiy iqtisodiy voqea va jarayonlar (masalan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish, turli resurslar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi) va kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish, xususiy yoki davlat sektorida mehnatda band bo'lish, ish haqi yoki nafaqa olish va h.k.)dan tortib nisbatan murakkab jarayonlar (masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat banklari kreditlaridan foydalanish, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqalar)da ishtirok etishigacha bo'lgan" jihatlarni qamrab olishini bilib oldik (Turopov, 2021).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida me'yoriy - xuquqiy xujjatlar, mantiqiy fikrlash, tizimli taxlil, iqtisodchi olimlarning qiyosiy va tanqidiy taxlili, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, iqtisodiy statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va natija olish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqoridagi fikrlarni taxlil qilish natijasida, shu narsa ma'lum bo'ldiki, moliyaviy savodxonlikni o'rganish va aholi o'rtasida keng targ'ib qilish hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, oylik daromadlarimizdan to'g'ri foydalanish, turli xil favqulotda vaziyatlar uchun mablag'larimizni asrashimiz, shuningdek, kelajak avlod uchun bu tizimni o'rgatish, savodli va moliyaviy jixatdan bilimli yosh avlodni tarbiyalashimiz lozimdir. Moliyaviy jixatdan bilimsiz yoki sodda aholi juda ko'p to'siqlarga, turli xil pul bilan bog'liq xavf-xatarlarga, firibgarlik qurboniga duchor bo'lishi mumkin. Shuning uchun moliyaviy bilimlarimizni oshirishimiz, moliyaviy savodxonlik bo'yicha turli tadbirlarda, musobaqalarda ishtirok etishimiz lozim.

Mamlakatda aholi moliyaviy savodxonligi darajasining yuqori bo'lishi, moliyaviy xizmatlar sohasining ham jadal rivojlanishiga sabab bo'ladi. Moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali, aholining bu boradagi bilimlarini mustahkamlash va kichik biznes sub'ektlarining bunday xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish imkonini yaratadi.

Yana bir jihatni ta'kidlash kerak – moliyaviy savodxonlikning asosida inson turadi, zero mazkur jarayonni amalga oshirishdan asosiy maqsad, ham uning farovonligi va hayot sifatini oshirish hisoblanadi. Biroq, buning uchun u o'z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslardan, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalar, vujudga kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlardan o'zi hamda jamiyat uchun manfaatli va samarali asosda foydalanish borasida etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, jamiyatda tarkib topgan qadriyatlar tizimi ham ushbu maqsadlar bilan o'zaro muvofiq kelishi zarur. Eng muhimi, har bir shaxs qayd etib o'tilgan vosita va dastaklardan foydalangan holda qisqa muddatli qarorlar qabul qilish hamda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.


Aholi moliyaviy savodxonligini oshirishni ijtimoiy ahamiyati ham bor. Chunki, alohida shaxsning moliya borasidagi bilim va ko'nikmalari pirovardida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fuqarolarning o'z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki noto'g'ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo bo'ladi, savodsizlik, yuqorida misollar keltirganimizdek, moliyaviy piramidalar va firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi. Global

miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin (Turopov, 2021).

O'zbekiston Respublikasi aholisining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida hukumat, Markaziy bank va boshqa turli banklar qator samarali tadbirlar, dasturlar ishlab chiqmoqda.

Bu amaliy vazifalar qatorida, moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida Markaziy bank huzurida "Moliyaviy savodxonlik va ommabopligini oshirish departamenti" tashkil etildi va ularga quyidagi vazifalar berildi: – aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish strategiyasini ishlab chiqish hamda uning doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish; – bank tizimi strategik vazifalari hamda rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari asosida Markaziy bank va tijorat banklari xodimlarining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishni ta'minlashdir. Aholi qatlamini moliyaviy huquqlarini bilishi, moliyaviy imkoniyatlaridan keng foydalana olishlari uchun "Moliyaviy savodxonlik va ommabopligini oshirish departamenti" tomonidan "Finlit.uz – moliyaviy savodxonlik" platformasi tashkil etildi va bu platforma orqali aholiga so'ngi moliyaviy yangiliklar va imkoniyatlar e'lon qilinib kelinmoqda (Safarov, 2024).

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) saytining 2021-yil uchun bergan ma'lumotlariga binoan, O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi, moliyaviy bilimlar va moliyaviy resurslarni boshqarish darajalaridan ko'ra ancha yuqori. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik darajasining yoshlar o'rtasida boshqa yoshdagilarga nisbatan pastligini ko'rsatmoqda. Birgina moliyaviy resurslarni boshqarish ko'rsatkichi yoshlar o'rtasida yuqori darajasi yoshlar tomonidan moliyaviy mablag'laridan foydalanishda turli axborot texnologiyalarini qo'llashlari bilan izohlanadi. Buni quyida keltirilgan rasm orqali ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda aholi moliyaviy savodxonligining yosh tarkibi (2021-yil)

Manba: Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Mazkur ko'rsatkichlar, o'z navbatida, yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha maqsadli milliy strategiyani ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan kelib chiqib, aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning quyidagi sabablarga ko'ra dolzarbligi oshib boradi:

- Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi;
- Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi;
- Aholini uzoq muddatli jamg'armalarga va kredit olishga bo'lgan ehtiyojini keskin ortishi;
- Shaxsiy jamg'armalarni investisiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi;
- Aholi mehnat migrasiyasi miqyosini kengayishi;
- Aholining iste'mol madaniyati sohasidagi mavjud qadriyatlarining ayrim xususiyatlari.

Aholining moliyaviy savodxonlikni oshirishi mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga, moliya-bank bozori xizmatlari ko'lamini oshishiga, aholini ortiqcha pul mablag'larini investisiya qilish orqali iqtisodiy o'sishga, uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar.

Taxlil va natijalarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, xozirgi globallashuv jarayoni davrida moliyaviy savodxonlikni oshirish bilimlarining dolzarb ekanligi ko'rsatib o'tildi. Xususan, respublikamizda qabul qilingan qarorlarning, amalga oshirilgan chora-tadbirlarning mamlakatimiz aholisining bilim darajasiga, malakasi va ko'nikmalariga, tadbirkorlik faoliyatiga, investisiyalash jarayonlariga ta'sirini aloxida inobatga olish lozim. Moliyaviy savodsiz kishilar xayotda turli xil to'siq va xavf-xatarlarga uchrashi, tadbirkorlik faoliyatida esa moliyaviy kasodga uchrashi va kelajak avladga xam shu odatlarni etkazishi muqarrar. Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda aytish lozimki, O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish firibgarlik va pul bilan bog'liq turli muammolarga uchramaslik uchun mamlakatimizda xam bir qancha chora - tadbirlar amalga oshirilganligiga guvoh bo'lishmiz mumkin. Jumladan, Markaziy bank tomonidan noiqtisodiy yo'nalishdagi universitetlar va ta'lim muassasalari uchun seminar darslarning tashkil qilinishi, Internet tarmoqlarida xam moliyaviy jixatdan bilimlarning oshirilishi, maktab, litsey, kasb-xunar kollej talabalariga, yoshlarga va keksa yoshdagi fuqarolarga xam bu xaqda tushuntirish ishlari olib borilishi lozim. Shuningdek, xar bir tuman va viloyatlarda, maxalla idoralarida, kutubxonalarda moliyaviy savodxonlik darslari, maxsus ochiq dars, yoshlar o'rtasida musobaqalar o'tkazilishi va bu fanni rivojlanishida bir qancha yangi adabiyotlarning yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

- Drucker P.F. (1993) *Post – Capitalist Society*. – Oxford Butterworth: Heinemann, – P. 271.
- Farmon (2018) "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296 son.
- Farmon (2022) "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son Farmoni.
- Muller S. & Weber M. (2010). *Financial Literacy and Mutual Fund Investments: Who Buys Actively Managed Funds?* *Schmalenbach Business Review* 62 (2). – P. 126153.
- Qaror (2023) "Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida"gi 2023 yil 9 martdagi PQ-88 son qarori.
- Qaror (2024) "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024 yil 7 fevraldagi PQ-62 son qarori.
- Qaror (2025) "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2025 yil 17 yanvardagi PQ-12 son qarori.
- Safarov F.A. (2024) *O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurati va shart-sharoitlari*.
- Turopov I. (2021) *Moliyaviy savodxonlik o'zi nima, u nima uchun dolzarb?* <https://bankers.uz/news/14?ysclid=mehgnedkh357858292>.
- Vaxobov A.B., Toshmatov Sh.A. (2013) *Moliyaviy savodxonlik asoslari. O'quv qo'llanma.* Tashkent: Baqtriya press. -288 b.
- Vaxobov A.V., Jumayev N..X., Xoshimov E.A. (2009) *Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. Monografiya.* – T.: «Akademnashr», – b. 67.
- Кийосаки Р.Т. (2011) *Богатый папа, бедный папа / Р.Т.Кийосаки.* – «Попурри», – С. 33.
- Шадманов Э., Хасанханова Н. (2020) *Теоретические основы экономического мышления. Монография.* –М.: «LAP LAMBERT Academic Publishing RU», – С. 64.